

OT SO'Z TURKUMI HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Qadamova Sabina Dilshodbek qizi
Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada ot so'z turkumi, hamda -lik va -lar qo'shimchalari to'g'risidagi barcha umumiy ma'lumotlar yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Ot, kelishik kategoriyasi, qo'chimcha, aniq ot, mavhum ot, yasama ot, yakka va to'da ot.*

Аннотация: В этой статье разъясняются все общие сведения о группе существительных и суффиксах -лик и -лар.

Ключевые слова: существительное, категория согласования, глагол, конкретное существительное, абстрактное существительное, искусственное существительное, единственное и собирательное существительное.

Abstract: In this article, all the general information about the noun group and suffixes -lik and -lar are explained.

Key words: Noun, agreement category, verb, concrete noun, abstract noun, artificial noun, singular and collective noun.

Ot – mustaqil so'z turkumlaridan biri. U boshqa turkumlardan bir necha belgi – xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular quyidagilardan iborat: 1) ot yasalish xususiyatiga ega: ishchi, suhbatdosh, paxtakor, bog'bon, oshpaz, Mirzacho'l; b) son-miqdorni bildirish xususiyatiga ega: bola – bolalar, daftar–daftarlari; v) egalik ko'rsatkichiga ega: otam, otang, otasi – otamiz, otangiz, otalari; g) kelishik shakllari bilan o'zgaradi; muktab, muktabning, muktabni, muktabga, muktabda, muktabdan; d) gapda barcha gap bo'laklari vazifasida keladi.

Aniq, predmetlarni yoki predmet sifatida tasavvur qilinadigan tushunchalarni ifodalaydigan otlar ma'nosiga ko'ra, atoqli va turdosh otlarga bo'linadi. Bir xildagi predmet yoki hodisaning birini ajratib ko'rsatuvchi otlar atoqli otlar sanaladi: Rustam, Olimjon, Jomboy, Mars, Venera, Boychibor kabilar. Bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomi turdosh otlardir: gul, daraxt, qalam, daftar kabi.

Ot turkumi 3 xil grammatik kategoriyaga ega: 1) son kategoriyasi; 2) egalik kategoriyasi; 3) kelishik kategoriyasi.

Otning funksional shakllari mavjud bo'lib, ular ma'lum bir qo'shimcha grammatik ma'no ifodalash, otlarning kategorial shakllariga xos bo'limgan biror sintaktik vazifasiga moslashish uchun xizmat qiladi. Otga xos funksional shaklning yasalishga ko'ra 3 tipi mavjud: 1) sintetik shakl; 2) analitik shakl; 3) juft va takror shakl. Otning sintetik funksional shakllari o'z ma'no va vazifalariga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi: a) kichraytish shakli (baliqcha, yigitcha, kelinchak); b) erkalash shakli (opajon, bo'taloq, qizaloq); v) hurmat shakli (onajon, opajon, dadamlar, akamlar, oyimlar); g) qarashlilik shakli (akamniki, muktabniki); d) o'rincisi (osmondag'i, qirdagi, qishloqdagi); e) chegara shakli (uygacha, toqqacha, boqqacha); j) o'xshatish shakli (Ozoddai – Ozod kabi, sizlarday – sizlar singari). Otning analitik shakli ko'makchi yordamida hosil bo'ladi: qalam bilan (da), otam uchun (-ga) kabi. Otning juft shakli

umumilashtirish, jamlik ma'nolarini ifodalaydi: qozon-tovoq, qovuntarvuz. Otning takroriy shakli ko'plik ma'no-sini ifodalaydi: qatra-qatra yosh, ombor-ombor g'alla.

Otlarning yasalishi natijasida yasama otlar paydo bo'ladi. Yasama otlar affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya yo'llari bilan yasaladi. Affiksatsiya ot yasashdagi eng mahsuldor usul bo'lib, uning yordamida shaxs otlari (bo'yoqchi, ishchi, mактабdosh, zargar, sholikor, saroybon, chorvador, tilshunos, etikdo'z, oshpaz, aravakash, kaptarboz, kitobxon); narsa-qurol otlari (ochqich, o'sma, to'plam, kurak, qirindi, ekin, kekirdak, suyunchi, tuzdon); o'rin-joy otlari (bodomzor, O'zbekiston, qarorgoh, ishxona, o'tloq, Paxtaobod); mavhum ma'noli otlar (yaxshilik, paxtachilik, ishonch, yig'ilish, radiolashtirish, odamgarchilik).

Kompozitsiya usuli bilan ot yasashda qo'shma otlar vujudga keladi: bilaguzuk, achchiqtosh, uchburchak, kungaboqar, olibsotar, ishlab chiqarish.

Abbreviatsiya usuli bilan ot yasalganda, qisqartma otlar hosil qilinadi: BMT, SamDU, O'zME kabi. Otlar gapda ega, to'ldiruvchi, qaratqichli aniqlovchi, hol vazifalarida keladi. Ammo o'rni bilan sifatlovchi, izohlovchi, kesim yoki atov, vokativ ran bo'lib kelishi ham mumkin.

Otlar tuzilishiga ko`ra ko`ra sodda, qo'shma, juft va takroriy otlarga bo`linadi. Sodda otlar faqat bir asosdan tarkib topgan otlardir: ishlarimiz, ko`chadagi, o`roq. Sodda otlar tub va yasama bo`ladi. Tarkibida so`z yasovchi qo'shimchasi bo`lmagan otlar sodda tub otlardir: tilimiz, bolalar, kitob. Morfologik usul bilan yasalgan otlar sodda yasama otlardir: ekin,supurgi, aravakash.

Qo'shma otlar ikki yoki undan ortiq asosdan tarkib topgan otlardir: kungaboqar, beshbarmoq, qo`lqop. Qo'shma otlar qo'shib yoki ajratib yoziladi:

Ikki va undan ortiq asosdan tarkib topgan turdosh otlar doim ajratib yoziladi: laylakqor tillaqosh, atirgul; Ikkinci qismi turdosh otdan bo`lgan atoqli otlar qo'shib yoziladi: Oltariq, Yangibozor. Ikkinci qismi atoqli otdan bo`lgan qo'shma otlar ajratib yoziladi: O`rta Osiyo, O`rta Chirchiq; Juft otlar ikkita otning juftlashuvidan hosil bo`ladi va chiziqcha bilan yoziladi: kitob-daftar, ota-on, orzu-armon, gap-so`z. Takroriy otlar otni aynan yoki tovush o`zgarishi bilan takrorlash orqali hosil qilinadi.Takroriy otlar chiziqcha bilan ajrtib yoziladi: savat-savat, dasta-dast, uy-puy.

Aniq va mavhum otlar

Sezgi a`zolarimiz yordamida (ushlab, ko`rib) bilishimiz mumkin bo`lgan narsalarni bildirgan otlar aniq otlar deyiladi: kitob, daftar, stol, stul.Aniq otlar birlik va ko`plik shaklda qo`llaniladi,birlik va ko`plik ma'nolarini anglata oladi:kitoblar-birdan ortiqlik ma`nosini anglatadi. Sezgi a`zolarimiz yordamida (ushlab, ko`rib) bilishimiz mumkin bo`lmagan, tafakkur va tasavvur orqali idrok qilinadigan narsalarni bildirgan otlar mavhum otlar deyiladi: baht, sevinch, yahshilik, go`zallik, ishq... Mavhum otlar faqat birlikda qo`llaniladi va ko`plik(-lar) qo'shimchasini olganda grammatik ma'no ifodalanmaydi, ma'no kuchaytiriladi, uslubiy ma'no anglashiladi: Tuyg`ularim toshib ketdi. Mavhum otlar yasama bo`lishi ham mumkin.

Yakka va to`da otlar. Donalab sanaladigan predmetlar yakka otlardir: daftar, ruchka, qalam. Bir turdagи predmetlarning jamini bildiruvchi, o`zi alohida predmetga xos atash ma`nosini anglatmaydigan otlar to`da otlardir: xalq, el, yurt, sabzavot, meva.

Otlarning son shakli uning lug` aviy shakli sanaladi. Son shakli birlik va ko`plik shaklga ega. Otlarning -lar qo`shimchasini olgan shakli ko`plik shakli, -lar qo`shimchasini olmagan shakli esa birlik shakli hisoblanadi. Masalan: kitob(birlik), kitoblar (ko`plik) -lar qo`shimchasi grammatik va uslubiy ma`nolarni ifodalash xususiyatiga ega: -lar qo`shimchasi ismlarga qo`shilib, ko`plik ma`nosini ifodalashi uning grammatik ma`nosidir: uylar, bolalar.

-lar qo`shimchasining faqat birlikda qo`llanuvchi otlarga qo`shilib, ko`plikdan tashqari anglatgan ma`nolari uning uslubiy ma`nosi bo`lib hisoblanadi. -lar qo`shimchasi uslubiy ma`nolari: Mavhum otlarga -lar qo`shimchasi qo`shilsa, ma`no kuchaytiriladi: sevinchlarim, qayg`ularim. Donalab sanalmaydigan otlarga - qo`shilganda xil, nav, tur ma`nolarini anglatadi: unlar, suvlar, yog`lar. Tabiyatdagagi yakka jismlarga qo`shilganda ma`no kuchaytiriladi: Oylar yuziga parda tortadi. Ism asoslarga qo`shilib, ularni boshqa so`zlarga bog`lab keladi va gap bo`laklarini shakllantirishga xizmat qiladi. Ismlarning munosabat shakllariga egalik, kelishik qo`shimchalari va ismlarni kesimlikka xoslovchi shakllar - man, -san, -dir qo`shimchalari, bo`lmoq, sanalmoq, hisoblanmoq kesimlik bog`lamalari kiradi. Birturdagi predmetlardan birining nomini yoki umumiy nomini bildirishiga ko`ra otlar atoqli otlar va turdosh otlarga bo`linadi. Atoqli otlar bir turdag'i predmetlardan bittasini ajratib ko`rsatuvchi, shaxs, narsa yoki joyga atab qo`yilgan otlardir. Xorazm, Kamola. Atoqli otlar nimani atab kelishiga ko`ra ikki xil bo`ladi: shaxs nomlari va joy nomlari. Kishilarga atab qo`yilgan nomlar, ularning ismi, familiyasi, taxallusi bildiruvchi atoqli otlar shaxs nomlari deyiladi: Alisher Navoiy, Yusuf xos Hojib, Erkin Vohidov; Ma`lum bir geografik hududga atab qo`yilgan nomlar joy nomlari deyiladi: Farg`ona, Chorsu, markaziy Osiyo. Mamlakat va o`lka nomlari qo`shma so`z shaklida bo`lganda har bir qisim bosh harf bilan yoziladi: Buyuk Britaniya, O`rta Osiyo.

Tarkibi turdosh otlarning qo`shilishidan hosil bo`lgan joy nomlari qo`shib yoziladi: oltiariq, yettisuv, oqtosh. Tarkibida bo`yi, orti, oldi so`zлari ishtiroq etgan joy nomlari qo`shib yoziladi: Orolbo`yi, Kavkazorti. Atoqli otlar tashkilot, korxona, muassasa nomlarini ham bildiradi: Sog`liqni saqlash vazirligi, O`zbekiston Oliy Majlisi. Xalqaro tashkilot va oliy davlat tashkilotlari va mansablarining nomlari tarkibidagi har bir so`z bosh harf bilan yoziladi: Vazirlar Mahkamasi, Xalqaro Olimpiya Qo`mitasi. Vazirliklar, idoralar, tashkilotlar va korxonalar nomi tarkibida birinchi so`z bosh harf bilan yoziladi: Madaniyat va sport ishlari vazirligi, Quvasoy sement zavodi. Turli korxonalar, mahsulotlar, inshootlarga berilgan shartli nomlar qo`shtirnoq ichida bosh harf bilan yoki birinchi qismi bosh harf bilan beriladi: "Istiqlol" saroyi, "Sharq yulduzi" jurnali.

Turdosh otlar

1. Narsa va shaxs otlari
2. Aniq va mavhum otlar
3. Yakka va to`da otlar
4. Faoliyat-jarayon otlar

5. O`rin-joy otlari. Shaxs otlari-kim? so`rog`iga javob bo`lib: chol, kampir, bola-shaxslarni yoshiga ko`ra; mahalladosh, qishloqdosh-yashash joyiga ko`ra; direktor, direktor o`ribbosari-mansabiga kora; amma, hola, tog`a, amaki-qarindoshlik darajasiga ko`ra nomlab

keladi. Shaxs otlari tub va yasama otlar bo`lishi mumkin. Ular shaxs oti yasovchi qo`shimchalari yordamida yasaladi:sinfidosh, suvchi, dorboz, soatsoz, kitobhon kabi.

-lik qo`shimchasi o`rin-joy bildiruvchi turdosh va atoqli otlarga qo`shilib, shaxsning shu hududga mansubligini bildiradi, atoqli otlarga qo`shilgan -lik qo`shimchasi atoqli otni turdosh otga aylantiradi va kichik harf bilan yoziladi: xorazmlik, qishloqlik. Narsa otlari-nima? so`rog`iga javob bo`lib jonli va jonsiz narsalarning nomlarini bildiradigan otlardir.

Hayvon nomlari - qovun, yo`lbars, kuchuk.

O`simlik nomlari - gul,yalpiz,rayhon.

Oziq-ovqat nomlari - banan,qovun,non.

Kiyim-kechak - shim, yubka, to`n.

Idish-tovoq nomlari - qoshiq, kosa, qozon.

Ish qurollari nomlari - ketmon, bolta, arra.

Osmon jismlari nomi - yulduz, oy, bulut, quyosh.

Narsa otlarining tub va yasama shakli mavjud: -gich, -qich, -gi,-qi -k,-oq, -indi, -ma, -don, -moq, -m qo`shimchalari asosga qo`shilib yasama narsa otlari yasaydi: o`roq, taroq, tugma, elak, supurgi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, otning funksional shakllari mavjud bo`lib, ular ma'lum bir qo'shimcha grammatik ma'no ifodalash, otlarning kategorial shakllariga xos bo`lmagan biror sintaktik vazifasiga moslashish uchun xizmat qiladi. Otga xos funksional shaklning yasalishga ko`ra 3 tipi mavjud: 1) sintetik shakl; 2) analitik shakl; 3) juft va takror shakl. Otlarning yasalishi natijasida yasama otlar paydo bo`ladi. Yasama otlar affiksatsiya, kompozitsiya, abbreviatsiya yo'llari bilan yasaladi deb aytva olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdurahmonov. G', Xo'jayeva. D, Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.: O'qituvchi, 2003.
2. Jamolxonov. N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T.: O'qituvchi, 2005.
3. Nurmonov. A. O'zbek tilshunosligi tarixi. T.: O'zbekiston, 2002.
4. www.google.com